



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Nazarova Dilnoza Eraliyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix kafedrası
datsenti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

To'rayeva Maftuna Shavkat qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Ta'lim va tarbiya
nazariyasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ekologik ustuvor vazifalarni boshlang'ich ta'lim tizimiga tadbiq etish masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni fanlararo integratsiya (matematika, tabiiy fanlar, tarbiya) orqali shakllantirishning samarali mexanizmlarini asoslashdan iborat. Maqolada integratsiyalashgan darslarning mazmuni, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirishga qaratilgan ekologik topshiriqlar va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Taraqqiyot strategiyasi, boshlang'ich ta'lim, ekologik madaniyat, integratsion yondashuv, fanlararo bog'lanish, mantiqiy topshiriqlar, pedagogik mexanizm.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются вопросы внедрения экологических приоритетов, определенных в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в систему начального образования. Целью исследования является обоснование эффективных механизмов формирования экологической культуры учащихся начальных классов посредством межпредметной интеграции (математика, естествознание, воспитание). В статье освещается содержание интегрированных уроков, экологические задания, направленные на развитие логического мышления учащихся, и их практическая значимость.

Ключевые слова: Стратегия развития, начальное образование, экологическая культура, интеграционный подход, междисциплинарные связи, логические задания, педагогический механизм.

ABSTRACT. This article examines the implementation of ecological priorities outlined in the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026 within the primary education system. The research aims to substantiate effective mechanisms for forming ecological culture among primary school students through interdisciplinary integration (mathematics, natural sciences, upbringing). The article highlights the content of integrated lessons, ecological tasks aimed at developing students' logical thinking, and their practical significance.

Keywords: Development Strategy, primary education, ecological culture, integrated approach, interdisciplinary links, logical tasks, pedagogical mechanism.

Kirish. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida inson qadri va uning barqaror hayot kechirishi uchun





qulay ekologik muhit yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan. Xususan, strategiyaning 6-ustuvor yo'nalishida ham ekologik muammolarni bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan bo'lib, bu vazifalarning muvaffaqiyati jamiyat a'zolarining, birinchi navbatda, yosh avlodning ekologik madaniyatiga bevosita bog'liqdir. Bu maqolada strategiyadagi "Yashil" iqtisodiyot va ekologik barqarorlik maqsadlarini bevosita dars jarayoniga qanday ko'chirish kerakligi ilmiy asoslab beriladi. Ekologiya va ekologik madaniyat tushunchalari bugungi kunda tabiatni asrash va kelajak avlodga yetkazishda eng muhim asoslardan biri hisoblanadi. Quyida ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan[1].

Asosiy qism. "Ekologiya" atamasi grekcha "oikos" (uy, turar joy) va "logos" (fan) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, keng ma'noda "tabiat uyi haqidagi fan"ni anglatadi. Tirik organizmlarning bir-biri bilan va ularni o'rab turgan tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fandır. Biosfera, ekotizimlar, o'simlik va hayvonot dunyosining yashash sharoitlari ekologiya obyektlaridir. Tabiatdagi muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit ifloslanishining oldini olish yo'llarini tadqiq etish esa ekologiya vazifalaridir[2].

Ekologik madaniyat — bu insonning tabiatga bo'lgan munosabatini belgilovchi ma'naviy va amaliy qadriyatlar majmuidir. Bu shunchaki bilim emas, balki tabiatni asrashni kundalik odatga aylantirishdir.

Ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagicha:

Ekologik bilim-tabiat qonuniyatlarini va inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini tushunishdan iborat.

Ekologik ong- har bir inson o'zini tabiatning bir qismi deb his qilishi va uning oldida mas'uliyatni anglashidir.

Ekologik faoliyat- kundalik hayotda suvni tejash, chiqindilarni saralash, daraxt ekish va tabiatga zarar yetkazmaslik kabi amaliy harakatlar hisoblanadi. Ekologik madaniyatni shakllantirish nima uchun muhim?

Bugungi global muammolar-iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, bioxilma-xillikning kamayishi insoniyatdan yuksak ekologik madaniyatni talab qilmoqda. bu talablar quyidagilardan iborat:

-Tabiiy muvozanat: Inson tabiatga "xo'jayin" emas, balki uning bir bo'lagi ekanligini anglasa, ekologik inqirozlarning oldi olinadi.

-Barqaror rivojlanish: Kelajak avlodlar uchun toza havo va suv zaxiralarini saqlab qolish faqat madaniyatli yondashuv orqali amalga oshadi.

-Sog'lom turmush tarzi: Atrof-muhit qanchalik toza bo'lsa, inson salomatligi shunchalik mustahkam bo'ladi.

Ekologiya — bu fan, ekologik madaniyat esa shu fan bergan xulosalar asosida tabiat bilan uyg'un yashash san'atidir.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ekologik transformatsiya jarayoni ta'lim tizimidan yangicha yondashuvni talab etadi. Ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari pedagog olimlardan N.Shodiyev, A.Zunnunov va xorijiy





tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan strategik maqsadlar doirasida integratsiyalashgan ta'lim modelini yaratish bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Zamonaviy pedagogikada integratsiya — bu shunchaki fanlarni qo'shish emas, balki o'quvchi ongida tabiatning yaxlit manzarasi va undagi inson o'rnini shakllantirishdir. Strategiyada ko'zda tutilgan "ekologik xavfsiz kelajak" tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun darslikdagi mantiqiy misollar va hayotiy vaziyatlar orqali tushunarli bo'lishi lozim.

Strategik maqsadlarni amaliyotga tatbiq etish uchun tadqiqotimizda "Ekologik mantiqiy zanjir" metodi taklif etiladi. Ushbu metod orqali boshlang'ich sinf fanlari quyidagicha integratsiya qilinadi:

Matematika darslarida: O'quvchilarga strategiyada ko'zda tutilgan "Yashil makon" loyihasi doirasida ekilayotgan ko'chatlarning o'sish koeffitsiyenti va ularning kislorod berish miqdorini hisoblashga doir masalalar beriladi.

Ona tili va O'qish savodxonligi darslarida: Atrof-muhitni asrash, suvni tejash va tabiatga mehribonlik ruhidagi matnlar tahlil qilinib, strategiyadagi "ekologik mas'uliyat" tushunchasi sharhlanadi.

Tarbiya va Texnologiya darslarida: Chiqindilarni saralash va ulardan ikkilamchi buyumlar yasash orqali "tejamkorlik" (energiya va resurslarni tejash) ko'nikmasi shakllantiriladi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, darslarni Taraqqiyot strategiyasidagi real hayotiy loyihalar (masalan, "Yashil belbog'") bilan bog'lab o'tish o'quvchilarning ekologik bilim o'zlashtirish darajasini 18-20% ga oshirilishi kutilmoqda

"Agar har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi strategiyadagi 'Yashil makon' loyihasiga hissa qo'shib, yiliga 2 tup ko'chat eksa va uni parvarish qilsa, sizning maktabingizda 100 ta o'quvchi tomonidan necha tup daraxt ko'payadi? Bu daraxtlar 5 yildan so'ng mahallangiz havosini qanchalik tozalaydi?"

Bunday topshiriqlar o'quvchida nafaqat hisoblash, balki davlat miqyosidagi ulkan islohotlarga daxldorlik hissini uyg'otadi.

Bundan tashqari, taraqqiyot strategiyasida ekologiya uchun alohida ustuvor yo'nalishlar ham bor. Targ'ibot maqsadida juda ko'plab loyihalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, "Eko schools Uzbekistan" loyihasi. Bu loyiha respublikamizdagi maktab o'quvchilari o'rtasida faol targ'ib qilinmoqda. Bu kabi loyihalar yoshlarda tabiatga bo'lgan muhabbat va e'tiborni yanada kuchaytiradi deb o'ylayman. O'quvchilarimiz yurtimizdagi ekologik muammolar va ularning oldini olish, kelajak avlod uchun katta ma'suliyat ekanligi tushunib borishmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan ham ekologik muammolarga katta urg'u berilmoqda. Bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda bu masala juda dolzarbdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT ning 2025-yil sentyabrda bo'lib o'tgan 80-ssessiyasida nutq so'zlab Orol muammosini alohida ta'kidlab o'tdilar. Orolning qurib qolgan va sho'r bosgan yerlarini ko'kalamlashtirish maqsadida saksovul ekish ishlari olib borilmoqda.





Qolaversa, 2026-yil 28-fevralida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga ko'ra, "Yashil makon umummilliy loyihasi doirasida mevali va manzarali ko'chatlar ekish, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, sog'lom turmush tarzi hamda sanitariya- gigiyenaga amal qilish maqsadida 13-14- mart kunlari hashar uyishtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026- yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgalik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" 2026- yil 6-martdagi PQ-82-son qaroriga muvofiq, Navro'z bayrami arafasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublikamizning barcha hududlarida "Men ko'chat ekaman" aksiyasi davom etmoqda. Bunday hashar va aksiyalarda maktab o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash ham ekologik madaniyatni shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ladi[3].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi ta'lim tizimi oldiga ekologik ongi yuksak shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Boshlang'ich sinflarda integratsion yondashuvni qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin bo'ladi:

- O'quvchilarning ekologik bilimlarini hayot bilan bog'laydi;
- Mantiqiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi;
- Tabiatga muhabbat va ma'suliyatni rivojlantiradi.

Strategiyada belgilangan ekologik ustuvor g'oyalar barqarorlikka erishish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son: 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
2. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M.K. Shirinov, "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining rasmiy kanali.

